

ESHITISHDA NUQSONI BULGAN BOLALARNING KOMMUNIKATIV MALAKASINI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITI

Alijanova Gulnora Rahimjanovna

Namangan viloyati Yangiqurg'on tumani 4-sonli maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: eshitish qobiliyatining cheklanishi bolalarning muloqot qilish, o'z fikrlarini ifoda etish va ijtimoiy muhitga integratsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu maqolada eshitish qobiliyati cheklangan bolalarning kommunikativ malakalarini rivojlantirishda zarur shart-sharoitlar va metodologiyalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: eshitish nuqsoni, ta'lif jarayoni, ijtimoiy integratsiya, maxsus pedagogika, ota-onalar roli, pedagogik yondashuv, ijtimoiy muhit, ta'lif resurslari.

Nutq – murakkab ruhiy faoliyatdir. U ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning umuman barkamol bo'lib o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo'lib, atrofdagilarga taqlid etish yo'li bilan rivojlanib boradi. Og'zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatori, nutqni harakatga keltiruvchi analizator ishtirok etadi. Nutqni harakatga keltiruvchi analizator eshituv analizatori bilan mahkam bog'langan holda ishlaydi, eshituv analizatorining rivojlanish darajasi esa ko'p jihatdan talaffuzga bog'liq. Bola nutqining o'sib borishi tovushlar talaffuzi, fiziologik va fonematik eshitishning kamol topib borish darajasi bilangina xarakterlanib qolmay, balki eng muhimi – o'z nutqi va atrofdagilar nutqidagi so'zlarning tuzilishini, tovush tarkibini farqlay olish qobiliyati bilan ham xarakterlanadi. So'z tarkibini anglab olishdan iborat bu qobiliyat grammatik va leksik komponentlarning rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Ikkala signal sistemasi, shuningdek, idrok bilan so'zning o'zaro aloqada bo'lishi aqliy rivojlanishning assosini tashkil etadi. Kar bolalarning 25–30 foizida eshitish nuqsonlari tug'ma bo'ladi. Bunga sabab: onaning homiladorlik davrida turli kasalliklar, masalan, gripp bilan kasallanishi, ota-onalarning ichkilik ichib turishi, onaning homiladorlik davrida bilar-bilmas doridarmonlarni iste'mol qilishi (ayniqsa, streptomitsin, xinin singari dorilarni), homilaning shikastlanishi; irlsiyat, genetik faktorlar (qulqoq tuzilishidagi patologik o'zgarishlar bo'lishi, masalan, eshitish yo'li atreziyasi – bituvi). Eshitishdagi orttirilgan nuqsonlar qulqoq yoki eshitish analizatorining tuzilishidagi kamchiliklardan kelib chiqishi mumkin. Bunga oliv asab markazi, o'tkazuvchi yo'llar yoki qulqoning o'zidagi o'zgarishlar sabab bo'ladi. Bolaning ilk yoshida otit, parotit (tepki), meningit, meningoensefalit, qizamiq, qizilcha, gripp kasalliklari bilan kasallanishi ba'zi hollarda kar-soqovlik yoki turli darajalardagi zaif eshitishga olib kelishi mumkin. Bugungi kunda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarga nisbatan g'amxo'rlik, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lif-tarbiya jarayonini ularga mos ravishda tashkil etish, sog'lom jamiyatga tenglashtirishdek o'ta mas'uliyatli vazifalar bir qator me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, asosiy maqsad o'quvchilarni mustaqil hayotga va kasb-hunarga tayyorlash, jamiyatda o'z o'rinalarini topishlariga yordam berishdan iboratdir.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berishni erta boshlashning ahamiyati juda katta. Bu haqda faylasuf va olimlar ko'plab fikr bildirgan. Chunki maktabgacha yosh davri inson hayotida muhim, aytish mumkinki, hal qiluvchi palla bo'lib hisoblanadi. Bu davrda asosiy odatlar, ko'nikmalar shakllanadi, xarakter belgilanadi, ya'ni butun keyingi hayot asoslari quriladi. Eshitish qobiliyati buzilgan bolaning paydo bo'lishi oilaviy hayotda jiddiy inqirozga olib kelishi mumkin. Oiladagi munosabatlar kar yoki eshitish qobiliyati past bolaning hayotiga katta ta'sir qiladi. Barcha oila a'zolarining hamjihatligi, bir-biriga hurmat, umumiy maqsadlar va yagona qadriyatlar tizimining mavjudligi – bularning barchasi eshitish qobiliyati zaif bolaning qulay rivojlanishiga yordam beradi. Surdopedagogikada kar bolani oilada erta tarbiyalash zarurligi haqida bir qancha olimlar fikrlari shaxsining kamol topishi va shakllanishida eng muhim omillardan biri bolaga bo'lgan g'amxo'rlik, e'tibor va mehr-muhabbat bo'lib, uning yaqin odamlari, birinchi navbatda, ona bo'lishi kerak, u shuningdek, bolaning birinchi tarbiyachisi bo'lishi kerak, u uchun ko'p narsani qila oladi. Surdopedagogika tarixiga nazar tashlasak, turli davrlarda eshitish qobiliyatidan ajralgan bolalarni tadqiqot obyekti sifatida o'rgangan olimlardan J.Kardano, V.I.Fleri, Ya.T.Speshevlar ular orasida ma'lum tarzda murojaat etilgan nutqni tushuna oladigan bolalar borligi, agar nutq ularga qarata balandlatilgan holda aytilsa eshitishi zaif bo'lgan bolalar nutqining ma'lum qismi shakllanishi haqida qayd etishgan. V.I.Fleri bola shaxsining shakllanishi uchun atrofdagi yaqinlari, ayniqsa, onasi g'amxo'rlik qilishi kerakligi hamda kar bolaning nutqining rivojlanishi ilk davrlardan, hattoki boshqalar nutqiga taqlid qilgan holda rivojlanishini ta'kidlagan holda "Kar-soqov bola qancha kichik bo'lsa, uning o'zlashtirish layoqati shuncha yuqori bo'ladi", -deb yozadi olim, shuningdek, ba'zi so'zlarni bola ko'rish asosida taqlidan o'zlashtirishi lozimligini alohida qayd etgan. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning tekshiruv usullari N.A.Rau tomonidan ishlab chiqilgan. Rau bolalalarni eshituv holatiga ko'ra ikkita toifaga bo'ladi: karsoqov va zaif eshituvchi bolalar. Rau kar va zaif eshituvchi bolalar bilan ular nutqini saqlab qolish niyatida labdan o'qishga o'rgatish va savodini chiqarish uchun ma'lum korreksionlar kerakligini ta'kidlaydi. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va mifikta ta'limi tizimini yaratishda, bolalarni saralash mezonlarini belgilashda, differential ta'limni yaratishda, samarali ta'lim-tarbiya usullarini tanlashda R.M.Boskis (1963y) klassifikasiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. L.S.Vigotskiyning bola psixikasining rivojlanishidagi birlamchi va ikkilamchi defektlar to'g'risidagi nazariyasiga asoslanib, R.M.Boskis, eshitishdagi nuqsonlarni farqlash bo'yicha pedagogik tasniflash mezonlarini ishlab shiqdi.

1. Bola eshituv analizatorining buzilishi, kattalarning xuddi shunday buzilishidan keskin farq qiladi. Katta kishilarning eshitishi pasaygan holda eshituv yordamidagi nutqiy muloqot buziladi. Ilk davrda eshituvning pasayishi, bolalarning psixik rivojlanishiga ta'sir etadi, rivojlanishidagi ikkilamchi nuqsonlarini keltirib chiqaradi.

2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning rivojlanishini to'g'ri tushunish uchun, ular tomonidan mustaqil ravishda nutqni egallash imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir. Eshituv qobiliyatining cheklanishi nutqning egallanishiga va to'laqonli nutqiy

muloqotga to'sqinlik qiladi. Og'zaki nutqning orqada qolishi yoki umuman yo'qligi, yozma nutqning egallanishiga, o'qiyotgan narsalarni tushunishiga, o'z fikrini yozma bayon etishiga, turli sohalardan bilim egallahiga yo'l bermaydi.

3.Eshituv holati va nutq o'zaro bog'liqdir. Bir tomondan, eshituvning pasayishi nutqning tabiiy ravishda o'sishiga to'sqinlik qiladi; ikkinchi tomondan eshitish qobiliyatining to'laqonli ishlatalishi bolaning nutqiy saviyasiga bog'liqdir. Nutq qanchalik yaxshi rivojlangan bo'lsa, eshituv qobiliyatidan foydalanish imkoniyatlari shunchalik kengayadi.

4.Eshituv qobiliyati buzilgan bolalar eshituvning pasayishi va nutqiy saviyasiga ko'ra xilma-xil bo'ladilar. Nutqning turli saviyada bo'lishi quyidagi omillarga bog'liqdir: a) eshitishning pasayish darajasiga; b) nuqsonning paydo bo'lishiga; v) eshituv nuqsonining paydo bo'lishidan keyinggi pedagogik shart-sharoitlarga; g) bolaning alohida xususiyatlariga. Eshitish qobiliyati pasayishining ikki turi farqlanadi, ya'ni kar-soqovlik va zaif eshitish. Zaif eshituvchi bolalarda nutqni idrok qilish va qabul qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ammo, eshitishdan foydalanib cheklangan miqdorda bo'lsa ham so'z zahirasini to'plash mumkin. Eshitish holatining pasayishi karlik darajasida bo'lsa, nutqni tabiiy o'rganishning imkoniyatbolalardan-da.Bolalarning risoladagidek rivojlanishi uchun, me'yorda eshitadigan bolalardan-da ko'proq maxsus ta'lim-tarbiya sharoitlarini yaratish talab etiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ilk yoshdan boshlab maxsus ta'lim-tarbiya berilgan holda, ularning umumiy rivojlanishidagi orqada qolishning oldini olish, mavjud nuqsonlarni korreksiyalash va ularning har tomonlama kamol topishini ta'minlash mumkin bo'ladi. Pedagogikada tarbiya qonuniyatları to'g'risidagi fan sifatida hodisalarning keng doirasi qamrab olinadi va turli sharoitda ta'limtarbiyani tashkil etish masalalari ishlab chiqiladi. Maktabgacha surdopedagogika fani pedagogika fanining umumiy qonuniyatlariga asoslangan holda rivojlanadi. O'ziga xos kommunikativ xususiyatlarga ega bo'lgan kar va zaif eshituvchi bolalarning ta'limi va ijtimoiy reabilitatsiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish alohida ahamiyatga ega. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda saqlanib qolgan sezgi a'zolarining kompensator faollashuvi munosabati bilan axborotni vizual idrok etish yetakchi o'rinni egallashi ham bu omilni kuchaytiradi. Bilimga bo'lgan qiziqishni oshirishda, faqat o'rganilayotgan materialning mazmuniga tayanib bo'lmaydi, o'quv jarayoniga bolalarni jalg qilish usullari hamda mashg'ulot texnologiyalari muhim ahamiyatga ega. Kompyuter va kompyuter texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylandi Ijtimoiy muhitda bolalarning kommunikativ malakalarini shakllantirish uchun bir qancha shart-sharoitlar mavjud:

1. Maxsus ta'lim: eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus ta'lim dasturlari va o'qituvchilar zarur.
2. Texnologiya va infratuzilma: eshituvchilar uchun innovatsion yordamchi texnologiyalardan foydalanish, masalan, audioklasterlar va didaktik vositalar.
3. Oilaviy qo'llab-quvvatlash: oila a'zolarining faolligi, bolalarni ijtimoiy faollikka jalb etish va ularning ehtiyojlarini tushunish.

4. Ijtimoiy aloqalar: eshitishda nuqsoni bo'limgan bolalar bilan qiyin aloqalarni o'rnatish, guruhli mashg'ulotlar va o'yinlar orqali ularni ijtimoiy hayotga integratsiyalash. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning kommunikativ malakalarini shakllantirish shart-sharoitlari faqat ta'lim jarayonida emas, balki ijtimoiy muhitda ham muhim ahamiyatga ega. Bularning barchasi ularning rivojlanishida va ijtimoiy hayotga qo'shilishida asosiy rol o'yнaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR:

1. Сурдопедагогика. Под ред. Е.Г.Речинской Москва. Влад. 2018
2. Марсновская Е.Н. Особенности овладения знаниями и умениями детьми с недостатками слуха. – Л., 2019.
3. Речинская. Е.Г. Дошкольная сурдопедагогика. – М., 2018.
4. ESHITISHDA NUQSONI BOLGAN BOLALARNI TARBIYALASHDA NAFOSAT TARBIYASINING ORNI. Ro'ziboyeva Zarina.
5. haqberdiyev, jamoliddin. (2020). БОЛАЛАРНИНГ МАКТАБГА ПСИХОЛОГИК ТАЙЁРГАРЛИГИ МАСАЛАЛАРИ
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/eshitishda-nuqsoni-bor-bolalarni-psixologik-tasnifi/viewer>